

Fiskal siyosat va uning islomiy tamoyillar bilan uyg'unligi

O.X.Maxmudov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Andijon fakulteti

Iqtisod fanlari doktori

E-mail: maxmudovodiljon1965@gmail.com

M.N.Orziqulova

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Andijon fakulteti "Iqtisodiyot"

yo'nalishi 1-boshqich talabasi

E-mail: malikaxon710@gmail.com

ARTICLE INFO

ABSTRACT:

ARTICLE HISTORY:

Received:10.04.2025

Revised: 11.04.2025

Accepted:13.04.2025

KEYWORDS:

Fiskal siyosat, soliq tizimi, davlat byudjeti, zakot, islomiy iqtisod, ijtimoiy adolat, ribo taqiqlanishi, isrofgarchilik, iqtisodiy barqarorlik, boylik taqsimoti, harakatlar strategiyasi, iqtisodiy islohotlar, O'zbekiston iqtisodiyoti.

Ushbu maqolada fiskal siyosatning mohiyati, uning asosiy yo'nalishlari va iqtisodiyotni tartibga solishdagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, islomiy fiskal siyosat tamoyillari, xususan, zakot, ribo taqiqlanishi va isrofgarchilikni cheklash kabi masalalar yoritiladi. Maqolada O'zbekistonning fiskal siyosat sohasidagi islohotlari va ularning iqtisodiy barqarorlikka ta'siri ham ko'rib chiqiladi.

Fiskal siyosat davlatning soliqlar va harajatlar orqali iqtisodni boshqarishi deyish mumkin. Unga Jon Meynard Keyns quyidagicha ta'rif beradi: "Fiskal siyosat bu davlat tomonidan soliqlar va xarajatlar orqali iqtisodiy faoliyatni boshqarish vositasi bo'lib, uning asosiy maqsadi iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va ishsizlik darajasini pasaytirishdir". Fiskal siyosat asosan ikki yo'nalishda olib boriladi: daromad siyosati va xarajat siyosati. Davlat iqtisodiyotni tartibga solish jarayonida soliqlar orqali budjet daromadlarini shakllantiradi va bu mablag'larni turli sohalarga yo'naltirib, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga harakat qiladi.

Lekin, qush bir qanot bilan ucha olmaganidek bu sohaga ham faqat dunyoviy taraflama emas diniy taraflama ham nazar solish kerak. Islom iqtisodiyotga o'ziga xos yondashgan xolda, uni faqatgina iqtisodiy barqarorlikni tenglovchi vosita emas, balki ijtimoiy adolatni taminlovchi mexanizm sifatida ham ko'radi. Islom dini boylik aholining har bir qatlami orasida teng taqsimlanishi kerak deb hisoblaydi. O'zbekistonda ham kam ta'minlangan aholi uchun davlat tomonidan moddiy yordamlar va imtiyozlar ko'rsatilib kelinmoqda. Misol uchun 2024-yilda ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga ko'ra, jami 15 trillion so'm miqdorida ijtimoiy nafaqalar to'landi. 2025-yilda esa O'zbekiston hukumati ijtimoiy himoya sohasiga jami 17,3 trillion so'm ajratishni rejalashtirmoqda. Shuning uchun ham ushr, xiroj, jizya kabi tushunchalarni musulmonlar orasida keng tarqatadi. Bu orqali daromadlar qayta taqsimlanadi va iqtisodiy tengsizlik ma'lum bir darajada kamayadi.

Islomiy fiskal siyosatda esa eng muhim jihatlardan biri zakot sanaladi. Zakot faqatgina diniy majburiyat emas, balki jamiyatda iqtisodiy tengsizlikni yumshatish va boylikni adolatli taqsimlashga xizmat qiluvchi samarali mexanizmdir. 2025-yil uchun zakot nisobi 61200000 so'm etib belgilandi. Demak kimda zaruriy ehtiyojidan tashqari kamida 61200000 so'm qiymatida pul mablag'i yoki ushbu qiymatdagi savdo tijorat moli bo'lsa, jami mablag'ning 2,5%ni zakot niyatida haqdorlarga berishi kerak deb belgilandi. Zamonaviy fiskal siyosatda soliqlar asosan davlat byudjetini to'ldirish va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash uchun ishlatilsa, islomiy iqtisodda zakot bevosita kambag'allar, ehtiyojmandlar, qarzдорlar va jamiyatdagi muhtoj qatlamlarga yo'naltiriladi. Shu orqali u davlat fiskal siyosatining asosiy maqsadlaridan biri – ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Islomiy fiskal siyosatning o'ziga xos jihatlaridan yana biri shundaki, u ortiqcha boylikning jamiyatda adolatli taqsimlanishini rag'batlantiradi va iqtisodiy inqirozlarning oldini olishga yordam beradi. Chunki boylik faqatgina ma'lum bir shaxslardagina emas, jamiyatning barcha qatlamiga borishi zarur.

Islomiy iqtisodning asosiy maqsadi – ijtimoiy adolatni ta'minlash va jamiyatdagi iqtisodiy muvozanatni saqlashdir. Bu faqat boylikning qanday taqsimlanishi bilangina emas, balki uning qanday to'planishi va aylanishi bilan ham chambarchas bog'liq. Shu nuqtai nazardan, ribo (foiz)ning taqiqlanishi islomiy fiskal siyosatning eng muhim jihatlardan biridir. Foiz asosidagi tizim natijasida boylik faqatgina ma'lum guruh qo'lida to'planib, jamiyatda iqtisodiy tengsilik kuchayishi ehtimoli ortadi. Islomiy iqtisod esa buning o'rniga halol mehnat, savdo va sheriklik asosida daromad topishni rag'batlantiradi. Shu boisdan ham islom moliya tizimida foizsiz banklar va daromad taqsimotiga asoslangan investitsion mexanizmlar rivojlangan.

Ammo, iqtisodiy barqarorlikni taminlash uchun faqatgina foiz tizimidan voz kechish yetarli emas. Boylikning noto'g'ri taqsimlanishiga olib keluvchi yana bir omil – bu isrofdir. Isrof nafaqat shaxsiy hayotda, balki davlat byudjeti darajasida ham iqtisodiy muvozanatni buzadigan asosiy omillardan biridir. Islomiy iqtisodda isrofgarchilik faqat ortiqcha sarf-xarajat emas, balki jamiyatning muhim ehtiyojlari e'tibordan chetda qolib, mablag'larning nojo'ya yo'nalishlarga sarflanishi sifatida ham tushuniladi. Davlat darajasida bu, masalan, byudjet mablag'larining maqsadsiz ishlatilishi yoki ortiqcha hashamatga yo'naltirilishi shaklida namoyon bo'lishi mumkin. Shu sababli, islomiy fiskal siyosat nafaqat daromadlarni adolatli taqsimlash, balki ularni eng muhim ijtimoiy ehtiyojlarga yo'naltirishni ham nazarda tutadi.

Shunday qilib, fiskal siyosat davlat iqtisodiyotini tartibga solish vositasi bo'lsa, uni isloh qilish har bir mamlakat uchun muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston ham bu borada sezilarli qadamlar tashlab, 2017-yil 7-fevralda qabul qilingan PF-4947-sonli Farmon orqali iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasini belgilab berdi. Ushbu strategiya fiskal siyosatni yanada samarali tashkil qilishga zamin yaratdi. 2030-yilgi harakatlar strategiyasida esa barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash, isrofgarchilikni oldini olish, soliq tizimini soddalashtirish kabi muhim g'oyalar kiritilgan.

Jumladan, Harakatlar strategiyasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish asosiy yo'nalishlardan biri sifatida qayd etildi. Soliq tizimini soddalashtirish, byudjet mablag'laridan oqilona foydalanish va biznes muhitini yaxshilash borasidagi chora-tadbirlar ham aynan shu strategiya doirasida amalga oshirildi. Bu o'zgarishlar davlat fiskal siyosatining asosiy maqsadi – iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy adolat tamoyillariga mos keladi.

Agar iqtisodiyotni katta bir daryo deb tasavvur qilsak, fiskal siyosat uning oqimini boshqaruvchi ko'prikdir. Bu ko'prikdir mustahkam bo'lsa, jamiyat iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy adolat sari ishonch bilan harakat qiladi. Islomiy fiskal siyosat esa

solliqlardan tashqari zakot va boshqa adolatli taqsimot mexanizmlariga tayanib, jamiyatdagi tengsizlikni yumshatishga xizmat qiladi. O'zbekiston ham fiskal islohotlar orqali yanada samarali tizim yaratishga intilmoqda. Zero, iqtisodiy barqarorlikning kaliti faqat raqamlarda emas, balki uning odilona taqsimlanishida hamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- ✓ Sh.X.Tashmatov, N.I.Xasanxonova Iqtisodiyot ta'limotlar tarixi
- ✓ Abduqodirov A. Fiskal siyosat va uning rivojlanish yo'nalishlari (Iqtisodiy tahlil jurnali)
- ✓ Lex.uz rasmiy huquqiy axborot portal <https://lex.uz/docs/3107036>
- ✓ Uz.kursiv.media O'zbekiston axborot portal